

## HARBIY XIZMATCHILAR KASBIY FAOLIYATIDA DEFORMATSIYA SHAKLLANISHINING ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLARI

**Xalilov Farxod Furqat o'g'li**

Turan International University

Gumanitar fanlar va pedagogika kafedrası PhD, dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21259743>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, harbiy xizmatchilar kasbiy faoliyatida uchraydigan deformatsiyaning ilmiy-nazariy asoslari ko'rib chiqiladi, shuningdek harbiy xizmatchilarni rag'batlantirish va intizomiy jazo motivatsiyasi orqali yuzaga keladigan deformatsiyalarni oldini olish hamda bartaraf etishda turli yondashuvlar orqali ilmiy-nazariy asoslar bilan yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar.** Milliy gvardiya, harbiy xizmatchilar, rag'bat, jazo, deformatsiya, intizom, harbiy intizom, ruhiy salomatlik, xulq-atvor, adaptatsiya, burch, sadoqat, jasorat.

**Аннотация.** В статье рассматриваются научно-теоретические основы деформаций, возникающих в профессиональной деятельности военнослужащих, а также различные подходы к предупреждению и устранению деформаций, возникающих в результате мотивации военнослужащих и применения дисциплинарных взысканий.

**Ключевые слова:** Национальная гвардия, военнослужащие, поощрение, наказание, деформация, дисциплина, воинская дисциплина, психическое здоровье, поведение, адаптация, долг, верность, мужество.

**Abstract.** This article examines the scientific and theoretical foundations of deformations occurring in the professional activities of military personnel, as well as various approaches to preventing and eliminating deformations arising from the motivation of military personnel and disciplinary punishment.

**Keywords.** National Guard, military personnel, incentive, punishment, deformation, discipline, military discipline, mental health, behavior, adaptation, duty, loyalty, courage.

Yangi O'zbekistonni barpo etish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar doirasida O'zbekiston Respublikasi Qurollı Kuchlari faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari ham tubdan qayta ko'rib chiqilmoqda.

Harbiy xizmatchilarni zamon talablariga mos ravishda harbiy xizmatchilarni tayyorlash, mamlakatimiz mustaqilligi va hududiy yaxlitligini himoya qilishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, dunyoda sodir bo'layotgan qurollı to'qnashuvlarda harbiy xizmatchilarning jangovar ruh va mafkuraviy immunitetini shakllantirish, ularda fidoyilik va vatanparvar hissini yanada oshirish, kechiktirib bo'lmas vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev yuqori professional, harbiy va vatanparvarlik burchiga sadoqatli, fidoyi va mard harbiy xizmatchilarni tarbiyalash O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi va hududiy yaxlitligini himoya qilish borasida bir qancha qaror va farmonlarni imzolashlari ham Qurolli Kuchlar tuzilmalariga yuksak mas'uliyat va harbiy burchni yuklaydi.

Jumladan: O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 18-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to'g'risida"gi O'RQ-647-son Qonunida Milliy gvardiya faoliyatining asosiy prinsiplari qonuniylik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularni hurmat qilish, yagonalik, mustaqillikdan iboratdir deb belgilab berilgan;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining Ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3898-son qarorida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida "Vatanmuqaddas, uni himoya qilish sharaflilik burchidir!" degan konseptual g'oya asosida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish, harbiy xizmatchilarning bilimi va ma'naviy saviyasini oshirish, axloqiy-ruhiy xislatlari va huquqiy bilimlarini mustahkamlash bo'yicha samarali mexanizmlarni yaratishga qaratilgan Qurolli Kuchlar tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishning izchil amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan;<sup>1</sup>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi PQ-4447-son qarorida O'zbekiston Respublikasiga qarshi harbiy tajovuz tahdidi yuzaga kelgan, favqulodda vaziyatlar ro'y bergan taqdirda tinchlik va urush davrida harakatdagi qo'shin guruhlarini kuchaytirish hamda yangi qo'shin guruhlarini tuzish uchun, shuningdek mamlakat xavfsizligi va mudofaa qobiliyatini ta'minlashga doir boshqa vazifalarni hal etish;

2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi PF-60-sonli Farmonining 90-maqsadida "Davlatning mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash, Qurolli Kuchlarning jangovar shayligini, uning imkoniyatlari va qobiliyatini kuchaytirish" bayon etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.02.2025-yildagi "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy nizomlarini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-23-son farmonida "Ta'kidlash joizki, yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston

<sup>1</sup> O'z.R.Prezidentining 2018-yil 4-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining Ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3898-son qarori. 2018-yil 4-avgust



Respublikasi Konstitutsiyasi kelgusida Qurolli Kuchlar tarkibiga kiradigan vazirlik va idoralar hamda ularning tizimida harbiy xizmatni o'tab kelayotgan harbiy xizmatchilarning kundalik jangovar-xizmat faoliyatini tashkil etish hamda amalga oshirish uchun mustahkam huquqiy poydevor bo'lib xizmat qiladi" deb aytib o'tilganligi harbiy xizmatchilar uchun zarur bilimlarni egallashi, harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligi nafaqat tashqi olamda ro'y berayotgan balki o'z ichki imkoniyatlari va salohiyatidan samarali foydalangan holda, harbiy xizmat faoliyatini oqilona tashkil etishning barcha sirlaridan boxabar bo'lish, o'ziga va o'zgalarga ta'sir etishning usul va vositalarini bilish hamda ulardan foydalanishni, harbiy intizomning mohiyatini, unga rioya qilish bo'yicha harbiy xizmatchilarning majburiyatlarini, harbiy xizmatchilarni rag'batlantirish va intizomiy ta'zir turlarini, rag'batlantirish va intizomiy ta'zirlarni qo'llashni, harbiy xizmatchilarning murojaatlarini ko'rib chiqish tartibini nazarda tutadi.<sup>2</sup>

Harbiy xizmatchilarning odob-axloq va xulq-atvor qoidalari O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy nizomlari bilan belgilanadi.<sup>3</sup>

### **MUHOKAMA VA ILMIIY YONDASHUVLAR**

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida harbiy xizmatni o'tash masalalarini yanada takomillashtirish, harbiy xizmatchilarning harbiy xizmat majburiyatlarini bajarish vaqtidagi huquq va majburiyatlarini, ichki, garnizon va qorovullik xizmatlarini tashkil etish bo'yicha tartib va qoidalarni belgilash, shuningdek, harbiy intizom va huquq-tartibotni mustahkamlash paytida va ekstremal vaziyatlarda, harbiy xizmatchilarning huquqlari, majburiyatlari, javobgarligi va huquqiy muhofazasining kafolatlarini, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni, ularni joylashtirishni, harbiy xizmatni o'tash davrida vaqtning taqsimlanishi va kundalik tartibni, jangovar navbatchilikni (navbatchilikni) va sutkalik naryad xizmatini tashkil etishni, texnikalardan foydalanish davrida ichki xizmatning xususiyatlarini nazarda tutuvchi hollarda kasbiy deformatsiyalar vujudga keladi. Huddi shu nuqtai-nazardan, harbiy xizmatchilarning odob-axloq va xulq-atvor qoidalari bilan kasbiy deformatsiyalarga uchrashi chambarchas bog'liqdir.

Milliy gvardiya harbiy xizmatchilar faoliyatida nizoli va ziddiyatli vaziyatlarning mavjudligi albatta ularning ruhiyatiga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Harbiy xizmatchilarning kundalik va ekstremal vaziyatlarda qaror qabul qilishi va o'zini idora qilishi, tobora shiddatli tus

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.02.2025 yildagi "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy nizomlarini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-23-son farmonining 1-band, 2-xatboshisi, 1-bet

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.02.2025 yildagi "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy nizomlarini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-23-son farmonining 2-band, 3-xatboshisi, 1-bet



olayotgan axborot xurujining ko'pligi, harbiy xizmat yuklamasining ko'payishi natijasida ruhiy zo'riqish holatlari kasbiy deformatsiyalarni keltirib chiqarmoqda.

Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari doimiy ravishda jangovar va ekstremal sharoitlarga jamoat xavfsizligini ta'minlashga har jihatdan tayyor turish yoki, oilaviy ijtimoiy va xizmat jamoasidagi muammoli, ziddiyatli holatlar, ulardagi psixo-emotsional zo'riqish (stress), depressiya va nevroitik buzilish holatini vujudga kelishiga ta'sir etmoqda. Ayrim sabablarga ko'ra harbiy xizmatchilarning to'g'ri dam olishlari psixologik va psixofiziologik zaxira to'play olishning imkoni mavjud emasligi, ularning ruhiy barqaror ishlashiga hamda turlicha ruhiy o'zgarishlarning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Ishdagi hissiy stress qanchalik baland bo'lsa, deformatsiyalar paydo bo'lish ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi. O'z navbatida, ish tajribasi o'sib borishi bilan hissiy vaziyat ko'pincha tushkunlikka tushadi. Buzulishlar charchoqning natijasi bo'lishi mumkin. Bu ishda kuchaygan hissiyot fonida yuzaga keladigan va tirnash xususiyati, xavotir, haddan tashqari qo'zg'alish va asabiy tushkunlik bilan kechadigan beqaror ruhiy holat. Natijada, ishdan charchash, qoniqmaslik, o'sish istiqbollarning yo'qotish, shaxsning kasbiy halokati (deformatsiyasi)ga olib keladi.

Kasbiy deformatsiya harbiy xizmatchilarning nafaqat amaliy xatti-harakatlarida, harbiy burchiga munosabatida, kerak bo'lsa nutqlarida ham seziladi. Ular o'zining xatti-harakatlaridan norozi bo'ladi va ularda ko'p hollarda kasbiy deformatsiya depressiyani<sup>1</sup> keltirib chiqaradi.

Lekin, hamma harbiy xizmatchilarda ham kasbiy deformatsiya yuzaga kelavermaydi, ba'zilarida iroda kuchli bo'lib, bunda faqat xizmat davrida deformatsiya yuzaga kelmasligi yoki namoyon bo'lmasligi mumkin. Harbiy xizmatchilarda "emotsional kuyish" tushunchasi ham mavjud bo'lib, ushbu tushuncha xizmatning mohiyati bilan bog'liq bo'lgan tushuncha hisoblanadi. "Emotsional kuyish" keng tushuncha bo'lib bu o'ta qiyin psixofiziologik fenomen hisoblanadi, ushbu tushuncha aqliy, jismoniy, emotsional, ruhiy charchashlar bilan bog'liqdir. Ushbu "kuyish" tushunchasi zo'riqish bilan xizmat olib borish bilan ham bevosita bog'liqdir deb tushunsa bo'ladi deydi G.I.Urazayeva<sup>4</sup>.

Ushbu fikrga qo'shilmaligimizni iloji yo'q, chunki muallif muammoga kompleks yondashishga harakat qilgan, lekin muallif tomonidan politsiya xizmati misolida yondashilgan, ushbu muammo politsiya xizmati bilan

---

<sup>4</sup> Уразаева Г.И. Профессиональная деформация сотрудников полиции в аспекте эмоционального выгорания: социально-психологически условия, механизмы, особенности, факторы//Вестник Казанского юридического института МВД России-2014, №2С 14-20





harbiy xizmatchilarning xizmati o'rtasida esa kasbning mohiyatidan kelib chiqib o'ziga xos farq bor. Shuning uchun ham harbiy xizmatchilarda kasbiy deformatsiya ichki ishlar organlari xodimlariga nisbatan birmuncha kamroq yuzaga keladi desak xato bo'lmaydi. Ushbu xizmat harbiy xizmatchilarining kasbiy deformatsiyasi turli omillar ta'siri orqali yuzaga keladi<sup>5</sup>. Masalan, Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining turli salbiy xarakteridagi va tabaqadagi fuqarolar bilan xizmat yuzasidan muloqoti, ular bilan bevosita ish]ashi natijasida yuzaga kelsa boshqa tomondan, xizmat faoliyatidagi muhitning o'zi ta'siri tezroq kasbiy deformatsiyani yuzaga keltiradi.<sup>6</sup>

Harbiy xizmatchilarda kasbiy deformatsiya asosan xizmat bilan bog'liq muhit ta'sirida shakllanadi. Chunki, ular tibbiy psixiatr ko'rigidan o'tgan harbiy xizmatchilar hisoblanishadi, ya'ni "kasbiy deformatsiya boshlanganida Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining haqiqiy mazmun-mohiyatini kasb egasi axloqiy jihatdan yo'qotadi"<sup>7</sup> deydi.

### XULOSA

Kasbiy deformatsiyaga qarshi kurashda qiyinchilik, qoida tariqasida, xodim tomonidan tan olinmaganligi va uning namoyon bo'lishi boshqa odamlar tomonidan kashf etilishidir. Kasbiy deformatsiya holatlarini keltirib chiqaruvchi (endo va egzo) omillar ta'siri natijasida kelib chiqishi ma'lum bo'ldi. Bugungi kunda kasbiy deformatsiya holarining kelib chiqishida turli olimlarning nazariy va ilmiy-amaliy qarashlari asosidagi shakllangan biopsixosotsial model va stress diatezi nazariyalari salmog'i va ahamiyatiga ega ekanligi alohida qayd etilgan. Kasbiy deformatsiya inson psixik hayotining barcha tomonlari – motivatsiya sohasiga, kognitiv va emotsional jarayonlarga, shaxs sifatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Kasbiy buzilishlar harbiy xizmatchida shakllanib bo'lgan kasbiy sifatlarni ham buzib yuborishga qodir. Harbiy xizmatchining faoliyatida qanchalik muvaffaqiyatga erishishi uning shu paytdagi psixologik holatiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Bu narsa harbiy xizmatchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham ofitser har bir harbiy xizmatchidagi ruhiy holatni sinchkovlik bilan kuzatib borishi va jamoa manfaatlariga buysundira olishi lozim.

Harbiy xizmatchilardagi bu kasbiy buzilishni progress va regress nuqtai nazardan qarashimiz ham mumkin ekan. Regress nuqtai nazardan deyilganda,

<sup>5</sup> Ernazarov A. Harbiy xizmatchilarkasbiy deformatsiyasini oldini olish bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. JXU.2023

<sup>6</sup> Ernazarov A. Harbiy xizmatchilarkasbiy deformatsiyasini oldini olish bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. JXU.2023

<sup>7</sup> Буданов А.В. Работа с сатрудниками ОВД по профилактике профессиональной деформации: М.Домодева 1992. 271-с





harbiy xizmatchi kasbiy faoliyati davrida haddan tashqari xizmat bilan bog'liq bo'lgan xatti-harakatlarni bo'rttirib, oshirib, ko'pirtirib ko'rsatishga harakat qiladi va bu xatti-harakatlar oilasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi, oiladagilar bilan ham harbiy xizmatchilarga qilgan kasbiy muomalasini qilishga harakat qiladi, o'zi bu xatti-harakatlarining natijalarini keyinroq tushunadi. Regressivda harbiy xizmatchi kasbiy faoliyatga moslashishi qiyin, progressivda esa xizmatda o'sish, ijobiylik yuzaga keladi va bu regressivning aksi hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 30.04.2023 yil.
- 2.O'z.R.Prezidentining 2018-yil 4-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining Ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3898-son qarori.
- 3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.02.2025 yildagi "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy nizomlarini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-23-son farmonining 1-band, 2-xatboshisi, 1-bet
- 4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.02.2025 yildagi "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy nizomlarini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-23-son farmonining 2-band, 3-xatboshisi, 1-bet
- 5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. 29.11.2021. PF-27-son.
- 6.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi farmoni. 28.01.2022. PF-60.
- 7.Уразаева Г.И. Профессиональная деформация сотрудников полиции в аспекте эмоционального выгорания: социально-психологически условия, механизмы, особенности, факторы//Вестник Казанского юридического института МВД России-2014, №2С 14-20
- 8.Ernazarov A. Harbiy xizmatchilarkasbiy deformatsiyasini oldini olish bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. JXU.2023
- 9.Буданов А.В. Работа с сатрудниками ОВД по профилактике профессиональной деформации: М.Домодева 1992. 271-с
- 10.<https://lex.uz>
- 11.[www.ziyonet.com](http://www.ziyonet.com)
- 12.<http://www.discat.com>
- 13.<http://www.natlib.com>
- 14.<http://www.koob.ru>
- 15.<http://ma'rifat.uz>